



Xalq so'zi

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2023-yil 24-oktabr, № 226 (8569)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skanner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI AQSH DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 23-oktabr kuni AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) administratori Samanta Pauer boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Delegatsiya Markaziy Osiyo mamlakatlari va AQSHning vazirlar darajasidagi taraqqiyot masalalari bo'yicha uchrashuvda ishtirok etish uchun mamlakatimizda bo'lib turibdi.

Konstruktiv va o'zaro manfaatlari hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

O'zbekistonda USAID bilan hamkorlikda sog'iqlini saqlash, ta'lif, "yashil" energetika, agrobiznes va boshqa yo'nalishlarda bir qator loyihiar ro'yogha chiqarilgani va davom ettirilayotganini ta'kidlash joiz.

Suhbat chog'ida joriy yilning sentabr oyida Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleysi sessiyasi doirasida bo'lib o'tgan "C5+1" formatidagi davlat rahbarlari sammitida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish yuzasidan fikr almashildi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surʼati.

YUNESKO IJROIYA KENGASHI O'ZBEKISTONNING TASHABBUSI BILAN AXBOROTDAN FOYDALANISH SOHASIDAGI REZOLYUTSIYANI BIR OVOZDAN MA'QULLADI

Shu yilning 4 – 18-oktabr kunlari Parijda bo'lib o'tgan YUNESKO Ijroiya kengashining 217-sessiyasida O'zbekiston tashabbusi – "Xalqaro axborotdan erkin foydalanish kuni munosabati bilan Toshkent deklaratsiyasi" rezolyutsiyasi bir ovozdan ma'qullandi.

Biz va jahon

Toshkent deklaratsiyasi 2022-yil 28-29-sentabr kunlari YUNESKO bilan birligida Xalqaro axborotdan erkin foydalanish kuni munosabati bilan Toshkentda o'tkazilgan "Sun'iy intellekt, elektron boshqaruva va axborot

erkinligi" mavzusidagi xalqaro konferensiya yakunlari bo'yicha qabul qilingan.

Xalqaro axborotdan erkin foydalanish kuni 2019-yilda ta'sis etilganidan beri birinchi marta global darajada nishonlanmoqda. BMT Bosh

Assambleysi tomonidan 28-sentabr — Xalqaro axborotdan erkin foydalanish kuni, deb e'lon qilingan.

Rezolyutsiya loyihasi a'zo davlatlar tomonidan Ijroiya kengashining 217-sessiyasi kun tartibiga yangi masala sifatida kiritilgan asosiy hujjalardan biri bo'ldi. Hujjatga 20 ta davlat, jumladan, Andorra, Jazo'r, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirgiziston, Tojikiston, Kuvayt, Misr, Marokash, Suriya, Sudan, Tunis, Fałastin, Palau, Shri-Lanka, Vengriya, Livan, Liberiya, Zimbabve va Chili hammullif bo'ldi.

O'zbekiston Hukumatiga Xalqaro axborotdan erkin foydalanish kuni munosabati bilan Toshkent shahrida (2022-yil 28-29-sentabr) bir qator tadbirlar tashkil etgani uchun minnatdorlik bildirilgan. Hujjat, shuningdek, bosh direktorni Toshkent deklaratsiyasida belgilangan inson huquqlari va barqaror rivojlanishni rag'batlanish uchun axborotdan foydalanishga yordam beradigan faoliyatni qo'llab-quvvatlashga chaqiradi.

Hujjatga muvofiq

Axborotdan erkin foydalanish bo'yicha Toshkent deklaratsiyasi"ni tasdiqlash yuzasidan bosh konferensiyaning 42-sessiyasi (shu yil 7 — 22-noyabr, Parij sh.) kun tartibiga kiritish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Ijroiya kengash rezolyutsiyasi YUNESKO bosh konferensiysi tomonidan ham qo'llab-quvvatlangan holda (umumiy ma'qillash) qabul qilinishi kutilmoqda.

"Dunyo" AA. Parij

Senat va hayot

TADBIRKORLAR MUROJAATLARI DOIMIY NAZORATDA

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va yangi loyihiarlari hayotga tabbiq etish uchun yanada qulay shart-sharoit yaratish, soha rivojiga to'siq bo'layotgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha izchil islohotlar olib borilmoqda. Muhim, ushbu sa'y-harakatlar o'z samarasini berayotir. Buni keyingi yillarda mazkur soha qanchalik rivojlangani misolda ham kuzatsak bo'лади.

Ayni jarayonda esa barcha davlat idoralari faol ishtirok etayotir. Xususan, Oliy Majlis Senati tomonidan nafaqat aholini, shu bilan birga, tadbirkorlarimizni q'ynab kelayotgan muammolarni eshitish va ularga yechim topish choralar ko'rib kelinyapti.

Misol uchun, yaqinda bir guruh tadbirkorlar tomonidan Oliy Majlis Senati Raisi nomiga yo'llangan murojaat kelib tushgandi. U Senatning Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasiga tomonidan nazoratga olindi va o'rganildi.

O'rganishlar davomida murojaatda ko'tarilgan masalalar bo'yicha Iqtisodiyot va moliva vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasiga hamda Adliya vazirligiga

senator so'rovi yuborildi. Mazkur senator so'rovi yuzasidan qo'mitada ishchi guruh yig'ilishi o'tkazilib, unda soha mutaxassislar hamda Senat devonining tegishli bo'lim xodimlari ishtirokda masala atroficha muhokama qilindi.

Muhokama natijalariga ko'rta tadbirkorlik subyektlari faoliyatini va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularga davlat tomonidan yengilliklar yaratish, shuningdek, ularning faoliyatiga to'siq bo'layotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan ko'sratmalar berildi.

Ushbu murojaat yuzasidan Senat qo'mitasining javob xati tayyorlanib, tadbirkorlarga yuborildi.

"Xalq so'zi".

Qonunchilik palatasi fraksiyalarida

FUQAROLAR MANFAATLARINING ISHONCHLI VA SAMARALI KAFOLATI

Kecha siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Unda Qonunchilik palatasining navbatdagi majlis kuni tartibiga kiritilgan saylov va referendum o'tkazish tartibili yanada takomillashtirish, fuqarolarning ijara munosabatlari va pensiya ta'minoti

borasidagi huquqlarini mustahkamlash, bolalar manfaatlarini kafolatlash, olis hududlarda internet va aloqa qamrovini oshirish uchun sharoitlarni kengaytirishga qaratilgan bir qator muhim qonun loyihiarlari dastlabki tarzda muhokama qilindi.

Shuningdek, fraksiyalar faoliyatiga taalluqli boshqa masalalar ham atroficha ko'rib chiqildi.

Fuqarolarning pensiya ta'minotiga oid huquqlari mustahkamlamoqda

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiysi

yig'ilishida dastlab deputatlar "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalari" saylov va

referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasini ko'rib chiqildilar.

Deputatlarning fikricha,

ushbu Konstitutsiyaviy qonun loyihasining qabul qilinishi siyosiy partiylar va deputatlar o'tasidagi aloqalarning mustahkamlanishiga, partiylar mavqeyi hamda saylov organlarining professionalligi darajasi yanada oshishiga yo'l ochadi.

Yig'ilishda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalari" qo'llanilgan ayrim tushunchalarini amaldagi qonunchilik hujjalariiga muvofiqlashirishni nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

MARKAZIY OSIYO YOSHLAR FORUMI — navqiron avlod huquqlarini ta'minlashdagi yangi bosqich

Poytaxtimizda "Yoshlar huquqlari: imkoniyatlari va himoya qilish mexanizmlari" mavzusida xalqaro forum bo'lib o'tdi. Anjuman noan' anaviy tarza — ma'nnaviy-badiyi sahna namoyishi bilan boshlandi. Muhtasham majlislar zali uza O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidovning "Inson qasidasi" iqtidorli yoshlari ijrosida o'zbek, ingliz va rus tillarida yangradi.

Anjuman

Ushbu xalqaro anjuman dunyo hamjamayoti tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti kuni deb e'lon qilingan tarixiy sana — 24-oktabr arafasida o'tkazilayotganida o'ziga xos ramziy ma'bo'r. Mazkur forum Prezidentimizning tegishli Farmoni bilan tasdiqlangan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi" doirasida o'tkazilmoqda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi

Spikerining birinchi o'rinnbosari, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori Akmal Saidov xalqaro forumni ochib, anjumanning o'ziga xos xususiyatlari, dolzarbligi va muhimligini alohida ta'kidladi.

Forum ishtirokchilarini BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari Folker Tyurk hamda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi direktori Matteo Mekachchi videomurojaat orqali tabrikladi.

▶3

HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASHDA QULAY MAYDON

Samarqand shahrida Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT)ga a'zo mamlakatlar inson resurslarini rivojlanishiga mas'ul idoralar rahbarlarining II yig'ilishi o'tkazilmoqda.

Tadbir

"Silk road Samarqand" xalqaro turizm markazida bo'lib o'tayotgan mazkur tadbirda TDTga a'zo davlatlarning inson resurslarini rivojlanishiga mas'ul idoralar rahbarlar, mamlakatimizdagagi tegishli vazirlar va idoralar, xorijiy hamda mahalliy ommaviy axborot vositalari vaqillari qatnashyapti.

Ta'kidlanganidek, ushbu tadbir davlat xizmatini rivojlanishda salohiyatlari kadrlar zaxirasi shakkantirish muammolari, istododillarini davlat xizmatiga jaib qilishning zamoni y hamda samarali mexanizmlarini muhokama etish, shuningdek, bu borada o'zaro hamkorlik mustahkamlash uchun qulay maydon yaratadi.

Yig'ilishni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlanishda agentligi direktorining birinchisi o'rinosari Otobek Hasanoval, Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibining o'rinosari Sa'di Jafarov o'chib berdi.

Anjumanning asosiy mavzusi inson resurslari, ularni rivojlanishiga va samarali boshqarishga qaratigan, — deydi Sa'di Jafarov. — Bu borada O'zbekistonda xalq davlat uchun emas, davlat xalq uchun xizmat qilishi kerak, degan tamoyil asosida katta islohotlar olib borilmoqda. Buni eng tuyiz bo'lgan mahallalarda ham ko'rish mumkin. Natijada ushbu sohada izchil rivojlanish tendensiyasi kuzatilyapti. O'zaro tarjiba almashtishda bu borada O'zbekiston erishayotgan natijalarga alohida urg'u beriladi.

▶2

▶3

O'zbekiston — kelajagi buguk davlat

Munosabat

YANGI TASHABBUSLAR O'ZBEKISTONNING DUNYO MIQYOSIDAGI O'RNNINI YANADA MUSTAHKAMLAYDI

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi O'zbekiston g'oyasi asosida olib borilayotgan izchil islohotlar va xalqaro miqyosda ilgari surib kelinayotgan tashabbuslar uning mintaqada hamda dunyo hamjamiyatidagi mavqeysi va o'rnnini tobora yuksaltimoqda. Natijada mamlakatini modernatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlari va ortga qaytmash islohotlar hamda faol tashqi siyosat nufuzli xalqaro tashkilotlar va davlatlar tomonidan haqli ravishda e'tirof etilayot.

Buni yaqinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan Xitoyning Pekin shahrida o'tkazilgan "Bir makon, bir yo'" III xalqorumda forumida ilgari surilgan dolzarba tashabbuslarni xalqaro hamjamiyat iliq kutib olgani misolida ham ko'rish mumkin.

Ushbu forumda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterish hamda ko'plab davlat va hukumatlar rahbarlar ishtirot etgantigidan kelib chiqadigan bo'lsak, bu keyingi yillarda O'zbekiston xalqaro maydonda o'zining so'zi va mustahkam o'rniiga ega bo'lib borayotganligini yaqqol ko'sratadi.

Endi forunning maqsadiga kelsak, bu orqali Buyuk Ipak yo'lini tiklash va shu yo'nalishdagi hamkorlikni yangicha ma'nozazmuan bilan boyitishni niyat qilingan bo'lib, bu boshqa davlatlar qatorida biz uchun ham ayni muddaodir. Shu ma'noda, mazkur anjuman dunyodagi vaziyat va ro'y berayotgan hodisalar fonda naqaqt mintaqamizda, balki butun dunyoda geostiyosiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi, desak, ayni haqiqatdir.

"Yashil Ipak yo'" tashabbusi ostida bo'lib o'tgan ushbu forum dunyodagi iqlim o'zgarishi oqibatida ro'y berayotgan anomal ob-havo va buning natijasida yuzaga kelayotgan qurg'ochilik hamda chang bo'ronlar va bioxilma-xillik yo'qolishining oldini olishga yo'naltirilgan dasturlari ijrosini ta'minlashda juda katta ahamiyatiga ega.

Tadbirning muhim voqealaridan biri sifatida "Markaziy Osiyoning "yashil" kun taribi" va "Yashil Ipak yo'" qo'shma tashabbuslarini ilgari surish asosida iqtisodiy tarmoqlarini raqamlashirish, transport va energetika tarmoqlarida barqaror tizimni barpo etish, "yashil" sanoat quvvatlarini ishga tushirish, kambag'allikni qisqartirish hamda "aqli" qishloq xo'jaligini rivojlantrishni o'z ichiga olgan "yashil taraqqiyotni" qo'llanmasini ishlab chiqish taklif etilganligini alohida ta'kidash joiz.

Shuningdek, mamlakatimiz yetakchisi o'z nutqida "Bir makon, bir yo'" forumi barcha ishtirokchilarining mavjud munosabatlari kengaytrishga qaratilgan bir qator takliflari o'tsha tashladi.

Xususan, "Makon va yo'" dasturda ishtirot etayotgan mamlakatlarni "yashil" mahsulotlar, ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining o'zaro savdosidagi cheklow va to'siqlarni kamaytirish hamda "yashil" energiyaga o'tish

bo'yicha muzokaralarni faollashtirish, ishtirokchi davlatlar vazirlarining muntazam uchrashuvlarini yo'lg'a qo'yish tashabbusini, hech ikkinanmasdan, a'zo davlatlar o'tsasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash sari tashlangan navbatdagi dadil qadam, deyish mumkin.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbari mavjud global muammolarga yechim topish maqsadida 2024-yilda Samarcand shahrida "Kelajak uchun — Samarcand muloqoti" xalqaro iqlim forumini tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi.

Forum doirasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Xitoq Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin bilan muzokaralar o'tkazdi. Bunda ikki davlat o'tsasidagi do'stlik va har tomonloma aloqalarni yanada mustahkamlash masalalari ko'rib chiqidi.

Kezi kelganda aytish kerakki, oxirgi vaqtarda ikki davlat o'tsasidagi siyosiy, ijtimoiy, savdo-iqtisodiy aloqalar yuksak pog'onaga ko'tarildi va munosabatlarimiz tobora mustahkamlanib bormoqda. Ayni chog'da ikkala tomon o'tsasida kelishuvlar ijrosini ta'minlash maqsadida Hukumatlarni qo'mitaning navbatdagi uchrashuvini o'tkazish taklifi ham bildiridi.

Forum davomida Xitoyning bir nechta yirik kompaniyalari rahbarlari bilan uchrashuvlar o'tkazildi. Bunda asosiy e'tibor O'zbekiston elektr tarmoqlari va energetikasini texnologik modernatsiya qilishni rivojlantrishga qaratilganligi alohida diqqatga sazovor. Negaki, yaqin vaqtarda bu sa'y-harakatlar davlatimizning energetika xavfsizligini ta'minlashda qo'l keladi, deb hisoblaymiz.

E'tiborlisi, sammit davomida Xitoq vakillari davlatimiz rahbarining "Bir makon, bir yo'" uchinchil xalqaro forumida ilgari surgan g'oya va takliflari yuksak baholab, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy hamkorlik hamda madaniy-gumanitar va ta'lim sohasidagi aloqalarni kengaytrishga tayyor ekanliklari bildirdi.

Xullas, xalqaro tadbir davomida bildirilgan g'oya va takliflar, ilgari surilgan tashabbuslar mamlakatimizning ijtimoiy va iqtisodiy rivojiga, investitsiya muhitini yanada jozibor bo'lishiga, O'zbekistonning xalqaro maydonda tutgan o'rnni mustahkamlashga xizmat qilishi bilan ham yanada qimmatidir.

**Narimon UMAROV,
Oliy Majlis Senatining
Sud-huquq masalalarini va
korruptsiyaga qarshi kurashish
qo'mitasi raisi.**

Aralash saylov tizimi:**MUHIM QOIDALAR VA DEMOKRATIK YONDASHUV**

So'nggi vaqtarda qabul qilinayotgan qonunlarning jamoatchilik muhokamasiga qo'yilayotgani, ushbu jarayonda xalqimiz faol qatnashayotgani hamda o'z taklif va mulohazalarini emin-erkin bildirayotgani huquqiy hujjatlarning har jihatdan pishiqligini, hayotiligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, yangi Konstitutsiyamizga kiritilgan normalar ham mavjud qonunchiligidigmizga singirdilmoqda.

Nuqtai nazar

Shu nuqtai nazardan aytganda, bir guruh deputatlar tashabbusi bilan ishlab chiqilgan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlari" qonun va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi quiyi palataning yaqinda bo'lib o'tgan majlisida birinch o'qishda qabul qilinib, regulation.gov.uz portaliga hamda parliament.gov.uz web-saytiga umumoxalq muhokamasiga qo'yilgan edi.

Qayd etish joiz, ushbu qonun loyihasining mazmun-mohiyatini alohiga yetkazish, muhokamalar o'tkazish va takliflar olish maqsadida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlar, Markaziy saylov komissiyasi hamda Adiliy vazirligi vakillaridan iborat targ'ibot guruhlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda aholi bilan bir qator uchrashuvlar o'tkazdi. O'z navbatida, 18 — 20-oktobr kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi va Korazm viloyatiqda biriktirilgan guruhlar tomonidan mahalliy deputatlar, saylov komissiyalari, siyosiy partiyalar,

nodavlat notiyor tashkilotlari va OAV xodimlari ishtirokida tashkil etilgan tadbirlarda qonun loyihasini yuzasidan faqat qo'pilchilik.

Hududlarda olib borilgan mulogoltarda ayon bo'ldiki, xalqimiz mamlakatimizning ertangi kuniga, taraqqiyotiga aslo befarq emas. Ayniqsa, loyiha bilan yurtimizda aralash saylov tizimiga o'tilish taklif qilinayotgan yuzasidan ko'plab munosabatlar bildirilgani saylovlarini professional, o'chiq va demokratik tarzda tashkil etish va o'tkazish bugungi kunda muhim ahamiyatga egaligini namoyon qiladi.

Shu o'rinda Konstitutsiyaviy qonun loyihasining muhim jihatlariga to'xtalib o'tsak. Avvalo, ushbu hujjat bilan saylovlarining majoritar va proporsional tizimini nazarda tutuvchi qoidalar Saylov Kodeksiga kiritilayotgan ta'kidash kerak. Bu esa O'zbekiston Respublikasi tarixida birinch marotaba Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovlarini aralash — "majoritar va proporsional" tizimida amalga oshirilishi nazarda tutilmoida.

Shuningdek, Saylov kodeksiga saylov

komissiyalarining vertikal tizimini nazarda tutuvchi qoidalar, xususan, "Markaziy saylov komissiyasi — hududiy saylov komissiyasi — tuman va shahar saylov komissiyasi — okrug saylov komissiyasi — uchastka saylov komissiyasi" tuzilmasi taklif etilmoqda. Markaziy saylov komissiyasi barcha komissiyalar ishlari muvofiglashtirib, ularga rahbarlik qilishi nazarda tutilmoida.

Che' da vlatlarda bo'lgan fuqarolarimizning siyosiy irodasini ro'yogba chiqarish hamda ular bergan ovozini o'zlariga aloqasi bo'imgan boshqa saylov okrugi hisobiga o'tkazish kabi noto'g'ri amaliyotdan voz kechish maqsadida xorijidagi fuqarolarimiz Qonunchilik palatasi saylovida proporsional tizim bo'yicha ovoz berishda qatnashishi taklif etilmoqda.

Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar saylovi natijalarini belgilash tartibi ham takomillashtirilmoqda. Amaldagi qonunchilikda saylovda ishtirok etgan saylovchilar yarmidan ko'pingin ovozini o'lgan nomzod salangan hisoblaniadi, ya'ni mutlaq ko'pchilik ovoz talab qilinadi. Ushbu talab Prezident sayloviga nisbatan to'g'ri qo'ilanigan bo'lib, bundan maqsad saylov huquqiga ega bo'lgan mamlakat aholsining mutlaq ko'pchilik tanlagan shaxsgina Prezident lavozimiga munosib ko'riliadi. Bunday amaliyot aksariyat xorijiy mamlakatlarda ham mavjud.

Shi bilan birga, bir nechta saylov okrularidan saylanadigan deputatikka nomzodlarga nisbatan bu kabi qoidani qayta ko'rib chiqish zarurati mavjud.

Chunchi, boshqalarga nisbatan ko'proq ovoz olgan deputatlikka nomzod saylanmas ekan, o'sha huddudagi nisbatan ko'pchilikning fikri va xohishistagi amalg'a oshmay qoladi. Shu sababli bir mandati saylov okrularida boshqa nomzodlarga nisbatan ko'proq ovoz olgan deputatlikka nomzod salangan, deb hisoblanishi belgihanmoqda. Ya'ni mutlaq ko'pchilik emas, balki nisbiy ko'pchilik ovozi bilan deputatlar saylanishi nazarda tutilmoida.

Bundan tashqari, qonun loyihasida saylov komissiyalarining vakolatlari qayta ko'rib chiqilishi barobarida siyosiy partiyalarning parlamentdag'i ro'yxatiga ham bar saylovchining qoidalar kiritilmoqda. Ayni chog'da shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish maqsadida uchastka saylov komissiyasi binosida tanishib chiqish uchun osiladigan saylovchilar ro'yxatiga har bir saylovchining faqatgina familyasi, ismi, otasining ismi va tug'ilgan yilini ko'sratish bilan cheklanish taklif etilayapti.

Muxtar aytganda, mazkr hujjatning qabul qilinishi saylov va referendum to'grisidagi qonunchilikni yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiga muvofiglashtiradi, parlamenti shakllantirishning yangi zamonaviy tizimini yo'lg'a qo'yadi hamda ushbu jarayonda siyosiy partiyalarning ishtiroti va rolini yanada oshiradi.

**Zuhra IBRAGIMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi Spikeri o'rinosbasari.**

**KONSTITUTSIYAVIY QONUN LOYIHASI
MUHOKAMASI YAKUNI NATIJALARI****OLIB BORGAN TARG'IBOTLAR NATIJASIDA QONUN
LOYIHASIGA KELIB TUSHGAN TAKLIF VA MUNOSABATLAR**

Жами муносабат ва тақлифлар 329 та

regulation.gov.uz порталига 183 та

parliament.gov.uz веб-сайтига 146 та

104 таси бевосита конун
лоиҳасига юзасидан

225 таси оддий муносабат

Тақлиф юборган фуқароларнинг фаолият соҳаси таҳлили

59 нафари
давлат хизматчиси

9 нафари
журналист
ва блогер



1 нафари
дастурчи



1 нафари
халқаро
ташкилот ходими



24 нафари



илмий изланувчи



146 нафари ўз фаoliyati
турини кўрсатмаган

Takliflarning qonun loyihasi 104 tasi bessida konun loihasigiga qo'mitasi yozasidani. Toshkent shahar kengashi mas'ul xodimi Azizbek Ochilboyev Saylov kodeksi bilan to'ldirayotgan 421-moddaning matnida 6-bandni "nomzod boshqa siyosiy partiyaning a'zosi ekanligi aniqlanganda" degan tahrirda bayon etilishini taklif qilgan. Chunki ushbu band mazkur moddanning 5 va 9-bandlaridagi normalarni takrorlamoda. Shuningdek, Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq narzasiyasi kafedrasini o'qituvchisi Iroda Umarova esa Saylov kodeksi bilan to'ldirayotgan 421-moddaning matnida 8-bandni chiqarib tashlashni taklif qilgan. Boisi mazkur banda ko'satilgan qoidalar Saylov kodeksining 5-moddasi hamda ushbu moddanning 4-bandida o'z ifodasini topgan. Shu kabi va boshqa qator

takliflarning qonun loyihasi 146 tasi bessida konun loihasigiga qo'mitasi yozasidani.

Alohibda qayd etish joizki, Konstitutsiyaviy qonun loyihasining mazmun-mohiyatini kengaytrishga qaratilgan qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Shuningdek, "Targ'ibot guruhlariga Qonunchilik palatasining 24 naifar deputati, Markaziy saylov komissiyasining 6 naifar mas'ul xodimi, hududiy adiliy boshqarmalari xodimlari hamda huquqshunos ekspertlarni 27 nafer jalb qilinadi.

Alohibda qayd etish joizki, Konstitutsiyaviy qonun loyihasining mazmun-mohiyatini kengaytrishga qaratilgan qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Shuningdek, "Targ'ibot guruhlariga Qonunchilik palatasining 24 naifar deputati, Markaziy saylov komissiyasining 6 naifar mas'ul xodimi, hududiy adiliy boshqarmalari xodimlari hamda huquqshunos ekspertlarni 27 nafer jalb qilinadi.

Alohibda qayd etish joizki, Konstitutsiyaviy qonun loyihasining mazmun-mohiyatini kengaytrishga qaratilgan qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Shuningdek, "Targ'ibot guruhlariga Qonunchilik palatasining 24 naifar deputati, Markaziy saylov komissiyasining 6 naifar mas'ul xodimi, hududiy adiliy boshqarmalari xodimlari hamda huquqshunos ekspertlarni 27 nafer jalb qilinadi.

Alohibda qayd etish joizki, Konstitutsiyaviy qonun loyihasining mazmun-mohiyatini kengaytrishga qaratilgan qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Shuningdek, "Targ'ibot guruhlariga Qonunchilik palatasining 24 naifar deputati, Markaziy saylov komissiyasining 6 naifar mas'ul xodimi, hududiy adiliy boshqarmalari xodimlari hamda huquqshunos ekspertlarni 27 nafer jalb qilinadi.

MARKAZIY OSIYO YOSHLAR FORUMI —

navqiron avlod huquqlarini ta'minlashdagi yangi bosqich



1 Tadbirda so'zga chiqqanlar Markaziy Osiyo yoshlari forumi uning ishtirokchilar uchun yoshlari huquqlari va imkoniyatlarini ta'minlash hamda himoya qilish mexanizmlari bo'yicha

zaruri bilimlarga ega bo'lish, o'zaro tajriba almashtirish, dolzor g'oya va loyihaarning ro'yobga chiqarish uchun quay axborot-ma'rifiy hamda amaliy muhokama-munozara maydoniga aylanishiga ishchonch bildirdi.

Shundan so'ng anjuman o'z ishini uchta yalpi majlis doirasida davom etti.

Forumda milliy va xorijiy eksplorlar, Markaziy Osiyo mamlakatlari yoshlari tashkilotlari yetakchilari, yoshlari parlamenti, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar, fuqarolar jamiyatni institutlari, ommaviy axborot vositalari, shuningdek, yoshlari huquqlari bo'yicha xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlar vakillari, jami 800 dan ortiq ishtirokchilar qatrashdi.

Forumni tashkil etishda BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi, Oliy komissari boshqarmasining Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy bo'limi, BMTning O'zbekistonidagi doimiy muvofiqlashtiruvchisi

ofisi, BMT Taraqqiyot dasturining mamlakatimizdagi vakolatxonasi, YXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi, YXHTning O'zbekistonidagi loyihalari muvofiqlashtiruvchisi, Fridrik Ebert nomidagi jamg'armal kabi xalqaro sheriklar bilan yaqin hamkorlikda ish olib borildi.

Forumning yopilish marosimida yoshlari huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish bo'yicha xalqaro, mintaqaviy hamda milliy tajriba va yondashuvlar muhokama qilindi. Prezident Shakhat Mirziyoyev tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlar rahbarlarining Dushanbeda bo'lib o'tgan Maslahat uchrashevi yakunida mintaqaga yoshlari manfaatlari ta'minlash yo'lida yana

bir muhim amally qadam qo'yildi. Ya'ni Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston o'rtesida yosholrangi oidi siyosatning umumiyo'yo'nalishiga to'grisida bitim inzolandi.

Barcha davlatlar siyosatiga yoshlari huquqlarini integratsiya qilishning huquqiy, ma'muriy va siyosiy asoslarini takomillashtirish yo'llari hamda vositalarini ishlash chiqish bo'yicha aniq tavsivilar ilgari surildi. Bunday amaliy yondashuv BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga salmoqli hissa qo'shish imkonini berishi ta'kidlandi.

Shu asosda xalqaro forumning yakuniy hujjati — Yoshlari huquqlari bo'yicha Markaziy Osiyo deklaratsiyasi loyihasi ishlash chiqilib, muhokama qilindi.

So'z — tadbir ishtirokchilariga

Matilda BOGNER,
BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy bo'linmasi rahbari:

— Mazkur forumni aholisining qariyb yarminni yoshlari tashkil etadigan Markaziy Osiyo mintaqasida yoshlari huquqlarini ta'minlash bo'yicha birdamlik va hamkorlikning ramzi, desak, mubolog'a emas. Nuu-York shahrida bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida O'zbekiston Prezidenti Shakhat Mirziyoyev yoshlari sohasida yana bir muhim tashabbus — BMT huzurida Markaziy Osiyo yoshlari rivojlanirishga ko'maklashish bo'yicha ischi guruhi tashkil etishni takif qilgan edi. Ushbu tashabbus mintaqaga yoshlari huquqlarini ta'minlash va amalga oshirishdan eng qorijiy darajada manfaatdorlikning yaqol namunasini bo'ldi.

Inson huquqlari bo'yicha ta'lum inson huquqlari va asosiy erkinliklaridan samarali foydalanish uchun muhim bo'lib, bag'rikengilik, kamtsitslik, tenglik, nizolarning oldini olish va ekstremizmga qarshi kurashishga yordam beradi. Samarali inson huquqlari

talimi ni naqaqt inson huquqlari va ularni himoya qilish mexanizmlari haqida bilim beradi, shuningdek, kundalil hayotda inson huquqlarini ilgari surish, himoya qilish va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'maklashish ham rivojlanitardi.

Forumning birinchi yalpi majlisida kelgusida yoshlari huquqlari sohasidagi amaliy ishlari va siyosiy tashabbuslar uchun poydevar bo'lib xizmat qiladigan qarorlar va tavsivilar ishlab chiqish uchun amaliy takliflarni ilgari surildi.

Memet JAKU,
YXHT amaldagi raisining yoshlari masalalari bo'yicha maxsus vakili:

— Yoshlari huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish tizimini rivojlanish sohasiga taalluqli bir qator ilg'or vosita hamda standartlari dunyo miqyosida muhim o'rinnlari egallab turgani ayni haqiqat. Bu vosita va standartlarning aksarasi BMT doirasida qabul qilingan bo'lib, keyingi 30 yilda yoshlari huquqlari himoya bo'yicha xalqaro hujjatlar soni 10 tadan oshgan ham buning yaqol tasdig'idi.

Forumning ikkinchi yalpi majlisida yoshlari

huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish uchun xalqaro hamda mintaqaviy vosita va mexanizmlarning qollanilishi sohasini tahlididan o'tkazdi. Yoshlari huquqlari hamda imkoniyatlari himoyaligi mexanizmlarning samaradorligini oshirish bo'yicha o'zaro fikr almashdi.

Biz, hammasiz bir yoqadan bosh chiqarib, yoshlari huquqlarini himoya qilish muhimligi borasida jamiyatning xabarorligi va tushunchasini oshirishga kirishishimiz, bu yo'nalishga qaratilgan siyosat va qonunchilikni targ'ib etish hamda qo'llab-quvvatlashimiz zarur.

Bunda yoshlari huquqlarini himoya qilishning eng maqbul amaliyoti va samarador mexanizmlariga taalluqli ilg'or tajribalarni o'rganish alohida o'rnatadi, albatta.

Darya KOSHELEVA,
BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining yoshlari bo'yicha mutaxassis (Jeneva):

— Inson huquqlari umumiyahon deklaratsiyasining 75 yilligi doirasida va inson huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq qizq'in faoliyatning peshqadamlari bo'lgan yoshlari o'z huquqlarini amalga oshirish asosida turli qiyinchiliklarga duch kelayotganini hisobga

beradi. Qolaversa, zamoniaviy kasblardan biri — marketing yo'nalishida ham mash'ulotlar olib boriladi. Sinfodoshlaridan ortda qolayotgan o'g'il-qizlar bilan yakka tartibda shug'ullaniladi. Sport, madaniyat hamda ta'lum yo'nalishida yuqori natijalarni qayd etgan o'quvchilariga grantlar va hattoki keshbeklar berib boriladi.

— "Yosh diplomatlar" MCHJ tomonidan tashkil etilayotgan ushbu loyiha qurilish

organ holda, BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi tomonidan Yoshlar huquqlari bo'yicha maslahat guruhiga tsidis etilgan. Uning asosiy vazifasi inson huquqlarini ta'minlash faoliyatida izchil ishtirok etish, yoshlari siyosatiga otd tabashbuslari qo'llab-quvvatlash va yoshlari huquqlari bo'yicha xalqaro-huquqiy hujjatlar ishlash chiqish sohasidagi tabashbuslari dastaklashdan iborat.

Shu ma'noda, Markaziy Osiyo yoshlari forumining uchinchi yalpi majlisida yoshlarning turli guruhlari uchun inson huquqlari sohasidagi asosiy tsig'lar va muammolarni o'rganishga alohida e'tibor qaratadi. Jumladan, milliy va mintaqaviy darajalarda inson huquqlarini himoya qilish va yoshlari inson huquqlari bo'yicha kelgusi yillarda qanday o'zgarishlar bo'lishini tasavvur etishi va kelajakda inson huquqlarini mustahkamish uchun qanday majburiyatni olishgani haqida fikr almashdi.

Rahmatjon BOBOJONOV
(*"Xalq so'zi"*) yozib oldi.

HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASHDA QULAY MAYDON



1 Qayd etilganidek, O'zbekiston da amalga oshirilayotgan keng ko'lami lohotlar davlat fuqarolik xizmati tizimini ilg'or xorij tajribasi asosida isloh qilish zaraturni ko'satmoqda. Shu o'rinda, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunni hayotga samarali tatabiq qilish uchun xorij tajribasida o'zini oqlagan zamonaviy mexanizm va texnologiyalarni qo'llash kun sayin dolzab masalaga ayliban boryapti.

Anjunan doirasida Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlarning inson resurslarini boshqarish va rivojlanirish bo'yicha rahbarlar o'z tajribalari yuzasidan taqdimot o'tkazdi. "Zamonaviy davlat boshqaruvi sharoitida rahbar kadrlarning salohiyatini oshirishning dolzab masalalari" mavzusida davra suhbati tashkil etildi. Davlat xizmati sohasida olib borilayotgan xalqaro hamda mintaqaviy tadjiqotlarning natijalari ko'rib chiqildi.

Shuningdek, kadrlar siyosati va davlat xizmatidagi zamonaviy trendlari, yangi g'oyalari hamda yondashuvlar muhokamasi davomida rahbar kadrlar zaxirasi shakkantirish va u bilan samarali ishslash bo'yicha ilg'or tajribalar o'rtoqlashildi. Iste'dodli shaxslar, xususan, yoshlarni davlat xizmatiga alohida qilish borasida o'zaro tajribasi amalga oshirishning qilish uchun qurilish qilishi.

Saminjon HUSANOV
(*"Xalq so'zi"*). — Turkiy davlatlar

Abdulaziz YO'LDSOEV
(*"Xalq so'zi"*).

Ta'limda Finlyandiya uslubi

Andijon viloyatining Marhamat tumanida ta'limning Finlyandiya uslubini joriy etishga kirishildi. Buning uchun loyiha qiyomi 29 milliard so'mdan iborat yangi ta'lim muassasasi barpo qilinmoqda.

Izlanish

— Ushbu ta'lum maskani 550 o'rinni bo'lib, u maktubgacha ta'lum tashkilotidan olyi ta'limgacha bo'lgan bosqichni o'zida qamrab oladi, — deydi tuman hokimining o'rinosari Dilxushbek Ismoilov. — Fanlar bo'yicha sinf xonalaringin mavjudligi o'quvchilarning chiqurlashtirilgan ta'lum olishlariga imkon beradi. Qolaversa, zamoniaviy kasblardan biri — marketing yo'nalishida ham mash'ulotlar olib boriladi. Sinfodoshlaridan ortda qolayotgan o'g'il-qizlar bilan yakka tartibda shug'ullaniladi. Sport, madaniyat hamda ta'lum yo'nalishida yuqori natijalarni qayd etgan o'quvchilariga grantlar va hattoki keshbeklar berib boriladi.

“Yosh diplomatlar” MCHJ tomonidan tashkil etilayotgan ushbu loyiha qurilish

ishlari yakunlanib, muassasa o'z faoliyatini boshlagach, o'quvchilar yozgi ta'il davrida ham ta'limdan uzilib qolmaydi. Buning uchun “Ta'lum o'yini” yozgi oromgohi yo'lg'a qo'yilib, unda o'quvchilarga interfaol usulda ta'lum beriladi.

Umuman olganda, Marhamatda ta'lum sohasida yangicha yo'nalish o'rqli farzandlarimizning har tomonlama barchamol hamda yetuk kadrlar sifatida voyaga yetishlari uchun quayl muhit yaratilmoqda.

Saminjon HUSANOV
(*"Xalq so'zi"*).

SAMARQAND MADANIY TURIZMNING XALQARO POYTAXTIGA AYLANADI

Butunjahan turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh assambleyasining 25-sessiyasining Samarqand shahrida o'tkazilishi dunyo hamjamiyatida O'zbekistonning xalqaro maydonda ochiq, faol rivojlanib borayotgan mamlakat sifatida e'tirof etilishining yana bir dalilidir, desak, ayni haqiqat.

Mushohada



Qisqa vaqt ichida ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar to'plami, jumladan, turizm to'g'isisidagi qonun qabul qilinib, mazkur sohan bosqichma-bosqich isloh etish uchun mustahкам huquqiy asos yaratildi.

Bunda Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan ochiq va pragmatik tashqi siyosat asosida yaqin do'st hamda hamkor davlatlarning sayyohlari va ishbilarmon doira vakillari uchun yaratilayotgan do'stona hamda bag'rikenlik muhitim ahamiyat kasb etayotir.

Xususan, so'nggi yillarda salkam yuzda mamlakat fuqarolari uchun O'zbekistonga vizasiz kirish tizimi, yana 55 ta davlat fuqarolari uchun soddalashshtirilgan elektron viza tartibi joriy etildi.

Sayyohlik biznesining barcha turini yuritish uchun quayl shart-sharoitlar yaratildi, soliq va bojxonha imtiozlarini taqdim etildi, kredit hamda moliyaviy yordam kuchaytilridi. Mehmoxona o'rinnlari soni 140 mingtaga yetkazildi, 70 ta yangi sayyohlik marshruti ochildi, 6 ta xususiy aviakompaniya ish boshladi.

Ahamiyatlisi, O'zbekistonga kelayotgan xorijik sayyohlar soni ikki barobar ko'payib, turizm eksportidan tushayotgan daromad 4 barobar o'sdi. Ayni chog'da yurtimiz tez rivojlanayotgan turizm maskani va eng xavfsiz davlat sifatida xalqaro reytinglarda yuqori o'rinnlari egallayotganligi, qisqa ayliganda.

O'zbekiston uchun “tashrif qog'oz'i”ga yaranish uchun tinch va xavfsiz makon sifatida tan olingani, yirik investorlardan torlib yosh tadbirkorlar va olmlar uchun barcha quayl shart-sharoit aynan shu mamlakatda yaratilganining xalqaro e'tirof bo'ldi, desak, xato emas.

Endilidka turizm sohasi shiddat bilan taraqqiy etar ekan, xalqaro munosabatlar mamlakat iqtisodiyotning barcha yo'nalishida o'zining yuqori natijasini ko'sata boshlaydi. Jumladan, Bosh assambleya doirasida turizm sohasidagi yetakchi kompaniyalar, olyi ta'lum muassasalarini va tashkilotlar ishtirokida investitsiya va ta'lum forumlari ham bo'lib o'tadi. Demak, ta'lum dasturlar, o'quvchilar, shaxslar, xususan, yoshlarni davlat xizmatiga alohida qilish uchun qurilish qilishi.

Turizm taraqqiyoti borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, o'z navbatida, biz o'zimiz tizimi vaykallarni cheksiz qovontsirmoqda. Chunki sohaga qaratilayotgan yuksak e'tibor xalqaro aloqalar, millatlararo ma'rifat, madaniyat, ilmiy tadqiqotlar, ilg'or tajribalar, ta'lum innovatsiyalarini quruxma qilishi.

Turizm taraqqiyoti borasida yaratilayotgan islohotlar ortga qaytmaydigan real haqiqatga aylangan. Amalga oshirilayotgan o'z natijasini berib, taraqqiyot sari dadil odamlar minnatdorlik bildirdi.

Ushbu yangilgan va o'zgarishlarni tahlil qilar ekanmiz, bugungi yangi davr, o'zgarishlar bilan dunyoga o'zini ochayotgan O'zbekiston turizm orqali ko'na tarixi, investitsiyaviy jozibasi, go'zal va betakor tabiatini, quayl geografik o'mni hamda mo'tadil iqlimi turizmi mamlakatning yetakchi drayveriga aylantirishiga ishonamiz.

Xulosa o'nida aytganda, mamlakatimizda nafaqat turizm, balki barcha sohadagi islohotlar ortga qaytmaydigan real haqiqatga aylangan. Amalga oshirilayotgan o'z natijasini berib, taraqqiyot sari dadil odamlar bermoqda.

Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligiga

BUYUK ALLOMANING BOQIY ILMUY MEROSI

XXI asr butun dunyo ilmiy jamoatchiliqi, tabiyi fanlar tadtiqotchilar e'tirofiga ko'ra ulug' vatandoshimiz, buyuk mutafakkir, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy sharafiga Beruniy asri sifatida tarix zarvaraqlariga kirdi.

Bu bejiz emas, albatta. Alloma o'z umri davomida turli fanlarga oid 150 dan ortiq asarlar yozgan bo'lib, uning bu ilmiy tadtiqotlari juda ko'p tillarga tarjima qilingan, dunyo olimlari tomonidan o'rganilgan va amaliyotda qo'llanilib, olamshumul natijalarga erishildi. Xususan, bugungi rivojlanish pallasi — fan texnologiyalari, fazoviy tadtiqotlar rivojida Abu Rayhon Beruniyning ulkan hissasi bor.



2021-yil noyabrdagi YUNESKO bosh konferensiyanisining 41-sessiyasi qarori bilan Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050-yilligini nishonlash unutilmas sanalar ro'yxtiga kiritidi. Davlatimiz rahbari tomonidan 2022-yil 25-avgustda "Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050-yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to'g'risida" qaror qabul qilindi.

Shu yilning sentabr oyida dastlab alloma tuq'ilgan Qoraqalpog'istonning Beruniy tumanida, so'ngra Xorazmda va Toshkent shahrida ushu sana xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirokida keng nishonlandi. "Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosining jahon fani rivojidagi o'nli" mavzusida o'tkazilgan ilmiy konferensiya jahoning o'ttiga yaqin davlatlardan tanqli beruniyshunos olimlar, ilm-fan arboblari qatnashganligi ulug' alloma asarlarining duno fani uchun bugungi kunda ham beqiyos ahamiyatiga ega ekandan dalolat beradi.

Qomusiy olimning noyob tadtiqotlari, yuksak tafakkuri tufayli arifmetika, algebra, geometriya maktablari rivoj topdi. Trigonometriya mustaqil fan darajasiaga ko'tarildi. O'z o'rniда uning asarlarini Mirzo Ulug'bek, Nikolay Kopernik kabi mashhur olimlarning kashfiyotlariga turki bo'lganini jahon ilm ahli e'tirof etadi.

Dunyoning mashhur olimlaridan biri Kave Farrox yozganidek, "Agar shunday ko'p qirrali buyuk iste'dod egalari — Al-Xorazmiy, Beruniy, Umar Hayyom ilm-u fanga o'z hissasini qo'shmanida, dunyoda balki hech qachon raketa qurilmalari yoki kompyuterlar ixtiro qilinmagan bo'lardi".

"Osori al-boqiya"

Beruniy Jurjonda "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" ("Osori al-boqiya") deb nomlangan ilmiy-tarixiy asarini yozdani. Olim endigina 27 yosha tolganda yozilgan bu kitob ko'pgina mamlakatlarga taraqladi va una o'zi yasagan astronomik asbob — sekstant bilan tanishitadi. Ular birgalikda kuzatishlar olib borishadi. Keyin Jurjonga qaylib, tabib, falakiyotchi va faylasuf Abu Sahl Iso al-Masihiy bilan tanishadi, undan tal'im oladi. Shahar hukmdori Qobus ibn Vashmgir yosh olimni o'z himoyasiga oladi, ijod qilishi uchun sharoit yaratib beradi.

Dunyoning mashhur olimlaridan biri Kave Farrox yozganidek, "Agar shunday ko'p qirrali buyuk iste'dod egalari — Al-Xorazmiy, Beruniy, Umar Hayyom ilm-u fanga o'z hissasini qo'shmanida, dunyoda balki hech qachon raketa qurilmalari yoki kompyuterlar ixtiro qilinmagan bo'lardi".

olib ketiladi va o'sha yerda ilmiy ishlarni davom ettiradi.

G'aznaviy e'tirof etgan olim

Mahmud G'aznaviy hayoti va faoliyati halil to'liq o'rganib chiqilgani yo'q. Sho'ro siyosati barcha hukmdorlari "qora ro'yxat"ga kirgizgani bois unga nisbatan tarix fanida hamon salbiy qarashlar saqlanib, "Mahmud qataq'on" nisbati beril kelimoqda. Aslida u tarixni, astronomiyani, geografiyani yaxshi bilgan, yozgan dilbar g'azzallarining ba'zilari bizgacha yetib kelgan. Ma'mun akademiyasi olimlarning G'aznaga ko'chirilishi ham uning ilmoga e'tiboridan dalolat, aslida.

Beruniy G'aznada boshlagan faoliyati davomida Gurganjda boshlab qo'yan "Geodeziya" asarini yozishga kirishadi va unga qarib olti yil umrini sarflaydi. Asarning to'la nomi "Aholi yashaydigan joylar orasidagi masofalarini aniqlash uchun (lozim) o'rinnarhang chegaralarini belgilash" deb nomlandi. Asarda turli fanlarning hamda olamning paydo bo'lishi, xususan, quruqlikning Yer markaziga munosabati, Arabiston sahrosi, Misr yeri, Jurjon, Korazm va boshqa hududlarning, shuningdek, Amudaryo, Nil daryolarining, okeanlarning paydo bo'lishi tarixi ilmiy asoslab beriladi. Aholi yashaydigan yerlarning iqlimlarga bo'linishi, Oy tutilishi

mazkur mamlakat haqida o'limas asar yozishga imkon yaratadi.

Beruniy hind madaniy yodgorliklarning organlar ekan, ulardan o'zgaralayish ham bura olishini istaydi. U o'sha davrda hind xalqining bi qancha asarlarini o'rganib, arab tiliga tarjima qiladi. Bu kitoblar ko'notning ibtidosi va mayjudot tavsifi haqidagi "Sanqh'ya" va jonnini badan qafasidan qutqarish to'g'risida bitilgan "Pantanjalii" kitoblari edi. Bundan tashqari, u Evklidning "Elementlar", Ptolomeynning "Almagest" asari va boshqa olimlarning bir qancha kitoblarini arab tilidan sanskrit tiliga o'giradi.

Olim hindlar hayotini, urf-odatlarini, tabiatini, yashash shart-sharoitlarini puxta o'rganib, "Hindiston" asarini yozishga kirishar ekan, shunday fikr bildiradi: "Bu tortishish yoki bahslashish uchun yozilgan kitob emas. Bu bor-yo'g'i hindlar so'zini o'zgartirmay, ro'yiost hikoya qilish

Xullas, Abu Rayhon Beruniyning ilm borasida qamrab olinmagan biron ta fan sohasi qolgan emas, desak, mubolag'a bo'limas. U shunday keng qamrovli olim ediki, akademik I. Krachkovskiya ta'biri bilan aytganda, olimning qiziqsan sohalarini sanab chiqishidan ko'ra, qiziqmagan sohalarini sanab chiqish osonroqdir. Allomaning ilmiy merosi shunday buyuk chashmaki, undan bura olganay sayin u qaynayveradi va barchani bahramand qilib, chanzqo'ni qondiradi. Muxtaras aytganda, avlodlarga beqiyos madaniy meroz goldirib ketgan ushbu buyuk allomaning hayoti, ilmiy faoliyatini va asarlarini hali-hanuz dunyo olimlari uchun tunganmas ilhom manbai, bugungi va kelajak avlodlar uchun faxr-u iftixor va ibrat maktabidir.

**Qurban MUHAMMADRIZO,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.**

Axborot va omaviy kommunikatsiyalar agentligi 0001-ragam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1041.32 699 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset ustilida bosig'an. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxa.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skener qiling.

TELEFONLAR:
Devonxon 71-259-74-51; ko'bitiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'yozmalar taqiz qilinmaydi va muallifa qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilat javobgar.

Gazeta tahririyat computer markazida teridi hamda operator M. Begumov tonidan safahalandi.

Gazetaning poligrafik ifhadati sifatli chop ettiligiga "Shark" nashriyot-matbaa aksiyadorli kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:

100066,
Toshkent shahri,
Islam Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir B. Madiyorov.
Musahih Sh. Mashrabboev.

Istam IBROHIMOV

("Xalq so'zi").

Ixtiro

G'IJDUVONLIK YIGIT INNOVATSION MOTOTSIKL YARATDI

Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi Yangiobod mahallasiga qarashli Varozin qishlog'i da yashovchi Anvar Barakayevni ayni kuch-quvvata to'lgan chog'ida taqdir qattiq sinova ro'baro' qildi. Baxtsiz hodisaga yo'liqib, ikki oyog'idan ajraldi. Amro u bu ko'rgulik qarshisida bo'yin egmadi, tushunkilikka tushmadi. Nogironman, deb boqimandalik etagidan tutmad. Yashashga bo'lgan ishtiyoiq va qiziqish uni o'qib-o'rganishga, ishslashga undadi.



2006 — 2009-yillarda Toshkentda nogironligi bo'lganlar uchun ixtisoslashtirilgan respublikasining kasb-hunar kollejida tahsil oldi. Shundan so'ng qishloqqa qaytib, o'rganganlarini amalda qo'llashga kirdi.

Gap shundaki, Anvar texnikaga qiziqadi, mototsikl ta'mirlaydi. Tabiatan yangilikka o'ch, iste'dodli. Avtouolvorni sozlayotib, ularga nimadir bir yangilik kiritishga harakat qildi.

Biz uni izlab borganimizda ham bu tinib-tinchimmas yigit navbatdagi buyurtma ustida ishlayotgan ekan.

— Mijoqlardan biri "Shunday qilginki, u antiqa mototsikl bo'lsin", deya buyurtma berdi, — deydi Anvar. — "Minsk" va "Vosxod" mototsikllarining ustun jihatlarini uyg'ulashirish, ko'rib turganligi ushbu ko'rinishga keltirdim. Unda elektr tizimi o'zgardi. O'z-o'zini quvvatlanfiridan bo'ldi. Boshqacha aytganda, maxsus moslama mexanik energiyani elektr energiyaga aylantirib beradi. Mototsikl o't oldirilmagan palla da ham uning chirogi 2,5-3 soat davomida yonib turishiga quvvati yetadi. Undan chog'roq supani kechqurun yoritib turishda ham foydalanish mumkin. Akkumulatorining yon-atrofga zarracha ziyoni yo'q.

Yurtimizda mototsiklga qiziquvchilar ancha-muncha topiladi. Shu bois buyurtmalar ham ko'p. Usta ularni bajarayotganida tegishli idoralar tavsiyalariiga amal qiladi. Xizmat haqi olayotib insofini unutmadi. Topgani ro'ziga baraka kirimoda.

Nogironlik aravachasida o'tirib ishlayotgan Anvarning harakatlarini kuzatarkanmiz, to'rt muchasi sog' bo'la turib, yalqovlikni o'ziga kasb qilib olgan, "Olma pish, og'zimga tush" qabilida yashashga odatlangan ayrim kishilar ko'z oldimiza keldi. Ular uchun bu usta yigitning hayoti, intilish-u ishtiyogi qibrat berdi.

Darvoqe, mabodo, yurtimiz qishloqlaridagi eng kichik hovilari ro'yxati tuzilsa, Anvar Barakayev o'sasi bilan yashayotgan uning old qatoridan o'ren olishi tayin. Hovli atigi ikki sotidox iborat. Otameros bu yerda Anvar mahalla, qishloqdoshlari ko'magida imorat tiklagan. Ustachilik ishlarni ham shu kaftdek hovlida bajaryapti.

— Yaqinda tumandan, mahalladan mas'ullar kelib, sharoitizm bilan tanishib ketishdi, — deydi u. — Xavfsiz sharsharoitda ishslashim uchun bo'sh yerdagi konteyner o'rnatib beradigan bo'lishdi. Agar quylaylik yaratilsa, faoliyatimni kengaytirishim, ikki-uch yoshni shogirdlikka ham olishim mumkin.

Darhaqiqat, izlanuvchan, kamtar, o'z ishining fidoyisi bo'lgan bu yigitga tegishli tashkilotlar yordam qo'lini cho'za, uni qo'llab-quvvatlashsha, ixtiroсини patentlashtirishiga ko'mak berishsa, ayni muddao bo'lardi. Axir noga qishloqdoshlari ko'magida imorat tiklagan. Ustachilik ishlarni ham shu kaftdek hovlida bajaryapti.

— Yaqinda tumandan, mahalladan mas'ullar kelib, sharoitizm bilan tanishib ketishdi, — deydi u. — Xavfsiz sharsharoitda ishslashim uchun bo'sh yerdagi konteyner o'rnatib beradigan bo'lishdi.

Agar quylaylik yaratilsa, faoliyatimni kengaytirishim, ikki-uch yoshni shogirdlikka ham olishim mumkin.

Darhaqiqat, izlanuvchan, kamtar, o'z ishining fidoyisi bo'lgan bu yigitga tegishli tashkilotlar yordam qo'lini cho'za, uni qo'llab-quvvatlashsha, ixtiroсини patentlashtirishiga ko'mak berishsa, ayni muddao bo'lardi. Axir noga qishloqdoshlari ko'magida imorat tiklagan. Ustachilik ishlarni ham shu kaftdek hovlida bajaryapti.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 01.28 Topshirildi — 02.00

1 2 3 4 5 6